


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-no'yabr)

2018 yilning yanvar-no'yabr oyida Viloyatda 1428 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 220 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 897 ta (8,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10289 tani tashkil etgan.


Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,0 % savdoda, 12,2 % sanoatda, 9,4 % qurilishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,4 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Sirdaryo viloyati bo'yicha	11084	10289	100	100
Oqoltin	445	413	4,0	4,0
Boyout	835	767	7,5	7,5
Sayhunobod	913	893	8,2	8,7
Guliston	833	745	7,5	7,2
Sardoba	408	388	3,7	3,8
Mirzaobod	814	745	7,3	7,2
Sirdaryo	1749	1598	15,8	15,5
Xovos	545	493	4,9	4,8
Guliston sh.	3468	3256	31,3	31,6
Shirin sh.	255	240	2,3	2,3
Yangiyer sh.	819	751	7,5	7,4

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 1428 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 15,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahrida (397 ta), Sirdaryo (223 ta), Sayhunobod (127 ta) va Yangiyer shahrida (116 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (31 ta), Xovos tumanlarda (71 ta) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (334 ta), sanoatda (248 ta), qurilishda (205 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (224 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (11 ta), axborot va aloqada (17 ta) hamda tashish va saqlashda (43 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	O'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	O'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Sanoat	153	124,4	13,4	213	139,2	17,6	248	116,4	17,4
Savdo	347	108,4	30,5	275	79,3	22,8	334	121,5	23,4
Qurilish	82	92,1	7,2	132	161,0	10,9	205	155,3	14,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	200	175,4	17,6	226	113,0	18,7	224	99,1	15,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	54	101,9	4,7	96	177,8	7,9	94	97,9	6,6
Tashish va saqlash	152	400,0	13,4	77	50,7	6,4	43	55,8	3,0
Axborot va aloqa	37	119,4	3,3	18	48,6	1,5	17	94,4	1,2
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	71,4	0,4	12	240,0	1,0	11	91,7	0,8
Boshqa turlari	108	81,2	9,5	159	147,2	13,2	252	158,5	17,6


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 8290 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2718 ta, oilaviy korxonalar – 88 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5177 ta, va boshqalar 307 tani tashkil etadi.


**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 106 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga yoki 22,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 78 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 47 ta (44,3 %), Guliston shahar 22 ta (20,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Guliston, Xovos tumanlarida 1 tadan (0,9 %), Sardoba tumani, Shirin shahrida 2 tadan (1,9 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 74 ta (69,8 %), savdoda 10 ta (9,4 %) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 8 ta (7,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (2,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (0,9 %) va qurilishda 6 ta (5,7 %) boshqa faoliyat turlarida esa 4 ta (3,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat turlariga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 27 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi- 16 ta, Qozog'iston Respublikasi –1 ta, va Koreya Respublikasi – 1 ta korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 20 ta, savdoda 1 ta, qurilishda 2 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3 ta va boshqa faoliyat turlarida 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	11	157,1	73,3	20	181,8	74,1
Savdo	1	100,0	6,7	1	100,0	3,7
Qurilish	2		13,3	2	100,0	7,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi				3		11,1
Tashish va saqlash	1		6,7	1	100,0	3,7

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 dekabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8245 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 9,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2780 tasi (33,7 %) Guliston shahriga, 1345 tasi (16,3 %) Sirdaryo tumaniga, 724 tasi (8,8 %) Sayhunobod tumanida hamda 628 tasi (7,6 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
eng katta ulushi****Guliston shahri**
33,7 %**Sirdaryo tumani**
16,3 %**Sayhunobod tumani**
8,8 %**Yangiyer shahri**
7,6 %**Guliston tumani**
7,1 %**Mirzaobod tumani**
7,2 %**Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
eng kichik ulushi****Boyout tumani**
6,6 %**Oqoltin tumani**
3,6 %**Sardoba tumani**
3,0 %**Xovos tumani**
3,9 %**Shirin shahri**
2,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8245 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2665 tasi (32,3 %) – savdoda, 1239 tasi (15,0 %) - sanoatda, 960 tasi (11,6 %) - qurilishda, 1212 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi, 561 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 547 tasi (6,6 %) - tashish va saqlashda, 150 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 82 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 829 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinishib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va

mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-noyabr holatiga 1284 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 12,2 % ga ko‘proqdir. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahrida (339 ta), Sirdaryo (206 ta), Sayhunobod (123 ta) va Boyout tumanlarida (102 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (28 ta), Sardoba (62 ta) hamda Xovos (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko‘pi savdoda (334 ta), sanoatda (248 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida (223 ta) va qurilishda (204 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda

(11 ta), axborot va aloqada (17 ta) hamda tashish va saqlashda (43 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yhatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 93 tani tashkil etib, ulardan 88 tasi yoki 94,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 30,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 43,2 % yoki 38 tasi sanoat, 21,6 % yoki 19 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,2 % yoki 16 tasi savdo, 9,1 % yoki 8 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hissasiga, 5,7 % yoki 5 tasi boshqa turlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi
statistik registrlarni yuritish bo'lumi
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: K.Yusupov
(0367) 225-31-00